



QOYALARDA QOLGAN SURATLAR.

Toybolaev Jahongir Jamolovich,

Farg'ona viloyati tarixi va madaniyati davlat muzeyi bo'lim bosolig'i

O'g'iloy Xodjaeva Mahmudjonovna,

Farg'ona viloyati tarixi va madaniyati davlat muzeyi bosh mutaxassisi

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.19606135>

Annotatsiya. *San'atning yuzaga kelishi insoniyat taraqqiyotida buyuk bosqich bo'lgan. Tarixchilarning fikricha, tasviriy san'atning paydo bo'lishi tosh davriga borib taqaladi. Dastlab sodda shakl, [belgi](#) tarzidagi tasvirlardan asta-sekin [hayvonlar](#) xususiyati, ko'rinishi, xarakterini ko'rsatadigan rasmlar yaratish boshlangan. Bu tasvirlar qadim ajdodlarimizning turmush tarzi, o'y-fikrlari haqida ma'lumot beradi. Qadimgi suratlar O'zbekiston hududida ham ko'plab uchraydi. Ushbu maqolada ibtidoiy tasviriy san'at, ularning o'ziga xos xususiyatlari, O'zbekiston hududi, jumladan, Farg'ona vodiysidagi qoyalarga chizilgan qadimgi suratlar haqida so'z yuritiladi.*

Kalit so'zlar: *Ibtidoiy tasviriy san'at, animal janr, mezolit va neolit davri, Zarautsoy, Sarmishsoy, Katta kamar g'ori, Qo'g'ort dovoni, Saymalitas, Davon davlati, "samoviy" otlar.*

Annotation. *The emergence of art was a great stage in the development of humanity. According to historians, the origin of fine art dates back to the Stone Age. At first, simple shapes and symbolic images appeared. Gradually, began to create drawings depicting the characteristics, appearance, and behavior of animals. These images provide information about the life and thoughts of our ancient ancestors. Ancient rock paintings are also widely found in the territory of Uzbekistan. This article discusses primitive fine art, its specific features, and ancient rock paintings found in the territory of Uzbekistan, including those in the Fergana Valley.*

Keywords: *Primitive fine art, animal genre, Mesolithic and Neolithic period, Zarautsoy, Sarmishsoy, Katta Kamar cave, Kugart pass, Saymalitas, Davan state, "heavenly" horses.*

Tasviriy san'at juda qadim zamonlarda, ibtidoiy odamlar mehnat jarayonining taraqqiyoti natijasida paydo bo'ldi. Ajdodlarimiz tarixining eng qadimgi davrlarida tasviriy ifodalar beqiyos ahamiyat kasb etgan. Negaki, eng qadimgi odamlar bir-birlariga fikrlarini, munosabatlarini, istaklarini chiziqlar, oddiy shakllar, primitiv tasvirlar orqali yetkazishga intilganlar. Masalan, ular ov qurollarini tasvirlash orqali ovga bormoqchi ekanliklarini ifodalasalar, yovvoyi buqa va boshqa turli hayvonlar tasvirlari orqali, o'sha hayvonlarni ovlamoqchi ekanliklarini bildirganlar. Bundan bilish mumkinki, animalistik janrga oid bo'lgan tasvirlar o'sha davrlardan boshlab rivojlangan. Animal janri - majoziy obrazlarni aks ettiruvchi tasviriy san'at asarlaridir. Bunda asosan turli hayvonlar, qushlar, ularning harakatlari, qiyofalari va shu obrazlar orqali hayot voqealari aks ettiriladi. Xayvonlar obrazini rasmlarda yaratish qadimdan rivojlanib kelgan. Ko'pincha o'sha davrlarda ovda erishgan yutuqlarini ham chizgan rasmlari bilan bog'liq, deb bilganlar. Suratlar ularning ruhiy tayyorgarligiga ta'sir qilgan, deyish mumkin. Shuning uchun ham suratlar



ularda qo‘rqmaslik, tabiat qoidasiga bo‘ysunish va turli tabiiy xolatlar bilan kurashga chorlagan.

Dunyo tarixida ibtidoiy tasviriy san‘at, xususan, g‘orlarning devorlariga turli tasvirlar chizish so‘nggi paleolit davriga oiddir. Ispaniyaning Altamir g‘ori mana shunday tasvirlar topilgan. O‘rta Osiyoda ungurlar va qoyatoshlarga ishlangan rasmlar mezolit davrida paydo bo‘ladi. Buxoro davlat universiteti o‘qituvchisi O.N. Shomurodov o‘zining “Tasviriy san‘at tarixi (portret, manzara, natyurmort, animalistik, batal janrlari)” asarida yozishicha neolit davriga kelib esa rivojlangan bosqichga ko‘tariladi. [1, B.4]

Kaltaminor, Hisor, ayniqsa Joytun madaniyatiga mansub yodgorliklardan ibtidoiy san‘atning turli namunalari topilgan. O‘rta Osiyoning tog‘lik hududlarida keng tarqalgan qoyatosh rasmlari ishlanish usuliga ko‘ra ikki xil. ba‘zilari bo‘yoq, ya‘ni oxra bilan, ikkinchi xillari esa urib-o‘yib ishqalash, chizish usuli bilan ishlangan (petrogliflar) rasmlardir.

Yuqorida aytilganidek, ibtidoiy san‘atning yurtimizdagi eng rivojlangan bosqichi neolit davriga oiddir. Bu davrga oid Joytun, Kaltaminor va Hisor madaniyatlariga mansub yodgorliklardan ibtidoiy san‘atning juda ko‘plab namunalari topilgan. Neolit davri odamlari idishlarga har xil rangdagi bo‘yoq bilan turli naqshlar, odam va hayvon tasvirlarini ifoda etganlar. Shu bilan birga loydan yasalib, pishirilgan ayol haykalchalari neolit davri san‘atining nodir namunalari hisoblanadi. [2, B.11]

Hozirgi O‘zbekistonning 28 ta hududidan ham ana shunday ibtidoiy jamoa davriga mansub o‘nlab tasvirlar qoldiqlari topilgan. Shulardan biri Zaravutsoy g‘orida ishlangan ov manzarasidir. Ibtidoiy odamlar hayotida ovchilik asosiy mashg‘ulot turi bo‘lganligi sababli ibtidoiy tasvirlarda ov manzarasi keng o‘rinni egallagan. Mazkur g‘ordagi rasmlarda qadimgi rassomlarning o‘ziga xos faoliyatini ko‘rish mumkin. Qo‘hitang tog‘ining eng yuqori qismining birida joylashgan bu g‘orni “Oltin olov qoyasi” yoki “Oltin olov darasi” deb ham, atashgan. Chunki ilgari g‘or - oltin, o‘t-olov ma‘nosida ishlatilgan. Shu bois bu muqaddas yodgorlik “Zaravutsoy” nomi bilan atalib kelinmoqda. Zaravutsoy ov manzarasidagi turli rasmlarni kuzatish qadimgi odamlarning hayotini, turmush tarzini jonli tasavvur qilishga yordam beradi.

Tasviriy san‘atning ibtidoiy davriga mansub namunalaridan biri Jizzax viloyatidagi Taqatosh nomi bilan atalib kelinayotgan toshdagi tasvir yozuvlardir. Bu tasvirlarda ham fikr, sezgi, amaliy ehtiyoj kabi tuyg‘ular aks ettirilgan. Qadimiy tasvirlardan yana biri Zarafshon etaklaridagi “Sarmishsoy” tasvirlarida esa ibtidoiy rassomlar ijodi o‘z aksini topgan.



Ibtidoiy tasviriy san'at namunalarini umuman qadimgi san'atning tiklanishida arxeologlarimizning samarali mehnatlari diqqatga sazovor. Chunonchi, Sarmishsoy rasmlari haqida A. Muhammadjonov “Qadimgi Buxoro” kitobida shunday qiziqarli fikrlarni yozadi: “Bu ibtidoiy tasviriy san'at asarlari Sarmishsoy darasining ikki yuzida qad ko'targan qoyatoshlarning silliqlik yuzasiga solingan. Ularning asosiy qismi uchli asboblar vositasida surunkasiga zarb bilan yoki o'tkir qirrali keskichlar vositasida chizib yoki tarashlangan. Ming yillar osha saqlanib kelayotgan suratlar quyosh va shamol ta'sirida unqib, qorayib ketgan bo'lsa-da, choshgoh va kech peshinlarda ko'zga yaqqol tashlanadi. Sarmishsoy qoyalari yovvoyi buqalar, shoxlari atrofga butalab ketgan bug'u va quyonlar, yelib borayotgan tog' takasi, ohu, to'ng'iz, bo'ri, qoplon, itlar hamda bir-biri bilan olishayotgan yovvoyi va xonaki hayvonlar, shuningdek, ovchilar va ov manzaralari ham tasvirlangan”. [3, B.14]

Bizgacha saqlanib qolgan ibtidoiy tasvirlarning aksariyati qoyatoshlarning yassi yuzlariga turli usullar (tirnash yoki bo'yash) yo'li bilan tushirilgan. Mana shunday tasvirlar Farg'ona vodiysida ham ko'plab uchraydi. Eng qadimgi tasvirlar qizil rang (oxra) bilan chizilganligini ham ko'rishimiz mumkin. Shunday tasvirlardan biri Yordon qishlog'idan 6 kilometr yuqorida, Oq suv daryosining yuqori o'zanida joylashgan “Katta kamar” g'ori da ko'rish mumkin. Mazkur g'orda odamlar juda qadim zamonlardan, ya'ni, neolit davrida boshlab yashaganlar. Extimol qadim zamonlardayoq bu yer muqaddas joyga aylantirilgan ham bo'lishi mumkin. G'orning shimoliy devorlarida ilohiy marosim harakatlari va ov qilish jarayoni aks ettirilgan. Farg'ona viloyati tarixi va madaniyati davlat muzeyiga ham ushbu g'ordan rasmi bir tosh keltirilgan bo'lib, unda do'mbira ushlagan odam bir oyog'ini ko'targan holda holda tasvirlangan. Orqa tomonda esa boshqa bir odam go'yo raqsga tushayotganga o'xshaydi.

Yana bir qiziqarli yodgorlik So'x tumanining Tul qishlog'i yaqinida joylashgan qoyadagi tasvirlardir. Bu yerdagi “Suratlar” deb atalgan joyda uy hayvonlarining tasviri tushirilgan. Mazkur muzeyda ana shu tasvirlarning bir qismidan olingan nus'ha tomoshabinlar namoyish etiladi. Ishlanish usuliga ko'ra bu tasvirlar bronza davriga mansub. Tasvirlarga e'tibor berar ekanmiz, undagi xo'kizlar juda ham nasldor va gavdali qilib ifodalanganligiga guvoh bo'lamiz. Tasvirni ishlagan “rassom”ning chizishga mehr bilan yondashganligi, bu xayvonlardan uning juda ham hayratlanganligi sezilib turadi. Ayrim olimlar bu tasvirlarni chizishdan maqsad, o'sha davrdagi odamlar rasm chizish orqali o'z chorvasining ko'payishiga ta'sir o'tkazishni xohlashgan, deb hisoblashadi. Nima bo'lganda ham ibtidoiy “rassom”ning qobiliyatiga tan bermasdan ilojimiz yo'q. Chunki, umumiy



kompozitsiya, harakatlarning tabiiyligi, obrazlarning har biriga individual yondashilganligi bilan “rassom” o‘sha zamon muhitini muvaffaqiyatli ifodalay bilgan. Farg‘ona vodiysiga shimoliy-sharqdan kirib kelish qismidagi Qo‘g‘ort dovonida qalashib yotgan bir necha ming harsang toshlarda turli davrlarga mansub tasvirlarni ko‘rish mumkin. Bronza davridan odat tusiga kirgan rasm chizish o‘rta asrlargacha davom etgan. Hatto temuriylar davriga mansub tasvirlarni uchratish mumkin. Qadimgi zamonlarda bu dovon orqali ko‘chib kelayotgan ko‘chmanchi xalqlar shu yerda to‘xtab, hordiq chiqarishgan. Qisqa dam olish vaqtida o‘z hayotlarida ro‘y bergan turli xodisotlarni aks ettirishga harakat qilishgan. Ayrimlari esa o‘zlari kelgusida ko‘rishni orzu qilgan manzarani ifodlashgan. Boy va hosildor yerlarning ko‘rinishi, son-sanoqsiz chorva mollari, yerga ishlov berish jarayoni bu yerdagi tasvirlarda tez-tez uchraydi. Hatto bayram onlari ham aks ettirilgan bo‘lib, doira qurib olgan odamlar olov atrofida raqsga tushib, boshqa bir guruh odamlar esa yangi chiqayotgan quyoshga ibodat qilishmoqda. Ayrim olimlar bu holatni yangi kun, ya‘ni Navro‘zni nishonlash deb izohlashadi. Bu tasvirlarning chizilganligiga 4 ming yildan ortiqroq vaqt bo‘ldi. Bu yerdagi toshlarda yana boshqa mavzularga oid manzaralarni ham uchratish mumkin. Shuning uchun bu joyning nomi hozir “Siyimli” (qirg‘izcha “Saymali”) tosh” deb ataladi.

Tarixdan ma‘lumki, eramizdan avvalgi II-I asrlarda Farg‘ona vodiysida Dovon nomli davlat mavjud bo‘lgan va ushbu davlat o‘zining “samoviy”, ya‘ni uchqur otlari bilan ma‘lum va mashhur bo‘lgan. Dovon otlari nafaqat Xitoy va boshqa xalqlar orasida ham juda qadrlangan. Shuning uchun bo‘lsa kerak, qadimgi savdo yo‘llarida esa samoviy otlarning tasvirlari chizish odat bo‘lgan. Jumladan, Qirg‘iziston Respublikasiga qarashli Aravon qishlog‘i yaqinidagi qoyada ot tasvirlari saqlanib qolgan.

Xulosa qilib aytganda, qadimgi rassomlar faoliyatida kuzatuvchanlik, shakl va chiziqalar orqasida bolayotgan voqealarning xarakterini, mazmunini yoritib bera olish qobiliyatlari ko‘zga tashlanadi. Qoyatosh, daralar va g‘orlardagi rasmlar mazmunan boy bo‘lishi bilan birga xilma xildir. Ularda turli manzaralar o‘z aksini topgan. Umuman bu tasvirlar orqali odamlarning mushtarak tuyg‘ulari yuzaga chiqqanligini ko‘ramiz. Bu rasmlarda har bir belgi, qoralama yoki shakl o‘ziga xos fikrni ifodalab berishi bilan qiziqarlidir. Yuqoridagi fikrlardan ko‘rinib turibdiki, ajdodlarimizning hayotida, turmush tarzida tasviriy faoliyat alohida o‘rin tutgan.

Farg‘ona viloyati tarixi va madaniyati davlat muzeyida Qo‘g‘ort dovonidan keltirilgan, echki surati tushirilgan xarsangtosh, vodiy hududidagi qoyalarga chizilgan tasvirlarning fotosuratlarini namoyish etiladi. Tashrif buyurganlar qadimiy

“SIRLI RANGLARDAGI MILLIY MEROS” mavzusidagi ilmiy-amaliy konferensiyasi



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MADANIY MEROS
AGENTLIGI

odamlar tomonidan chizilgan tasvirlarni tomosha qilib, o'rganar ekanlar, ularning rassomlik qobiliyatiga qoyil qolish bilan birga, o'sha davrdagi urf-odatlar, xo'jalik yuritish va madaniy hayot haqida ko'plab qiziqarli ma'lumotlarga ham ega bo'lishadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abdullaev N . “San’at tarixi” . Toshkent, “San’at” nashriyoti. 2001 yil.
2. Hasanov R. “Tasviriy san’at asoslari”. Toshkent, 2009 yil.
3. Moziydan sado jurnali. 2019 yil 1-son.
4. Farg'ona viloyat o'lkashunoslik muzeyi. Katalog. Toshkent, 2005 yil.
5. A. Muhammadjonov “Qadimgi Buxoro”. Toshkent, 2010-y.
6. “Tasviriy san’at tarixi”. O.N. Shomurodov. O'quv qo'llanma “Durdona” nashriyoti, Buxoro – 2021 yil.
7. Internet ma'lumotlari.

